ORIENTAL
UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Oriental universiteti rektori
_____ N. A. Mamataxunov
“ 26 ” “ 02 ” 2026-yil

O‘QUV JARAYONI SIFATINI BAHOLASH, TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA TARTIB

Toshkent – 2026

ORIENTAL UNIVERSITETI O‘QUV JARAYONI SIFATINI BAHOLASH, TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH TARTIBI

Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini ta‘minlash va doimiy ravishda takomillashtirib borish zamonaviy ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta‘lim jarayonining samaradorligi va natijadorligi nafaqat ta‘lim dasturlarining mazmuni va o‘qitish metodlariga, balki o‘quv jarayonini muntazam baholash, monitoring qilish hamda tahlil qilish tizimining mavjudligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Oriental universitetida ta‘lim sifatini oshirish universitetning strategik rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Universitetda o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xalqaro tajribalar hamda ichki sifatni ta‘minlash mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonini muntazam monitoring qilish, uning natijalarini tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali ta‘lim sifatini doimiy ravishda yaxshilab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hujjat Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish mexanizmlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda universitetda ta‘lim sifatini ta‘minlashning ichki tizimini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu tartib o‘quv jarayonini baholashning asosiy mezonlari va indikatorlarini, baholash jarayonini amalga oshirish mexanizmlarini hamda tahlil natijalari asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi.

Mazkur hujjat universitetning barcha tarkibiy bo‘linmalari, jumladan fakultetlar, kafedralar, professor-o‘qituvchilar hamda ta‘lim sifatini ta‘minlash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar faoliyatida qo‘llaniladi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Tartib Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifatini tizimli ravishda baholash, tahlil qilish hamda takomillashtirish mexanizmlarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Universitetda joriy etilgan HEMIS va APS (Academic Performance System) platformalari orqali amalga oshiriladi. Mazkur hujjat universitetning barcha tarkibiy bo‘linmalari uchun majburiy hisoblanadi. Tartib universitetda ta‘lim sifatini ta‘minlashning ichki tizimi doirasida o‘quv jarayonining samaradorligini monitoring qilish, baholash va tahlil qilish jarayonlarini tashkil etish hamda ularning natijalari asosida ta‘lim jarayonini doimiy takomillashtirib borish tartibini belgilaydi.

1.3. Mazkur Tartib o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, ta‘lim dasturlarining samaradorligini baholash, professor-o‘qituvchilar faoliyatini

monitoring qilish, talabalar bilim va ko‘nikmalarining shakllanish darajasini tahlil qilish hamda ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayonlarini tartibga soladi.

1.4. Mazkur Tartib quyidagi normativ-huquqiy va ichki hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat ta‘lim standartlari;
- Oliy ta‘lim sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar;
- Universitet ustavi;
- Universitetning ta‘lim sifatini ichki ta‘minlash siyosati;
- Talabalar bilimini baholash tartibi
- "Professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash tartibi";
- universitetning boshqa tegishli ichki normativ hujjatlari.

1.5. Mazkur Tartib talablari universitetning barcha tarkibiy bo‘linmalari, jumladan, kafedralar, professor-o‘qituvchilar, ta‘lim jarayonini tashkil etish va monitoring qilish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar hamda boshqa mas‘ul tarkibiy tuzilmalar uchun majburiy hisoblanadi.

1.6. Mazkur Tartib universitetda o‘quv jarayonini tashkil etish, monitoring qilish va takomillashtirish jarayonlarida shaffoflik, tizimlilik, uzluksizlik va samaradorlik tamoyillarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

II. O‘QUV JARAYONI SIFATINI BAHOLASHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifatini baholashning asosiy maqsadi ta‘lim jarayonining samaradorligini aniqlash, uning natijadorligini oshirish hamda ta‘lim sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni ta‘minlashdan iborat.

2.2. O‘quv jarayoni sifatini baholash universitetda ta‘lim jarayonining holatini tizimli ravishda monitoring qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

2.3. O‘quv jarayoni sifatini baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim jarayonining asosiy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish;
- professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati samaradorligini baholash;
- ta‘lim dasturlari va o‘quv rejalarning dolzarbligi hamda mehnat bozori talablariga mosligini tahlil qilish;
- talabalar bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining shakllanish darajasini aniqlash;

– o‘quv-uslubiy ta‘minot darajasi va uning sifatini baholash;

– ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar samaradorligini tahlil qilish;

– ta‘lim jarayonidagi mavjud kamchilik va muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2.4. O‘quv jarayoni sifatini baholash natijalari universitetda ta‘lim jarayonini boshqarish, ta‘lim dasturlarini takomillashtirish hamda professor-o‘qituvchilar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

III. O‘QUV JARAYONI SIFATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

3.1. Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifati ta‘lim jarayonining samaradorligi, natijadorligi hamda ta‘lim dasturlarining zamonaviy talablar va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini aniqlash maqsadida turli indikatorlar asosida baholanadi.

3.2. O‘quv jarayoni sifatini baholash quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar va indikatorlar asosida amalga oshiriladi:

3.2.1. Talabalar akademik natijalari

Talabalar bilim va kompetensiyalarining shakllanish darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

– fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi;

– oraliq nazorat va yakuniy nazorat natijalari;

– talabalar GPA (Grade Point Average) ko‘rsatkichlari;

– kursdan kursga o‘tish darajasi;

– bitiruv ko‘rsatkichlari va akademik qarzdorlik darajasi.

3.2.2. Ta‘lim jarayonining tashkil etilishi

Ta‘lim jarayonining sifat darajasi quyidagi indikatorlar orqali baholanadi:

– o‘quv rejalarning zamonaviy talablarga mosligi;

– fan sillabuslarining mavjudligi, to‘liqligi va sifati;

– o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta‘minlanganlik darajasi;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullarining qo‘llanilishi.

3.2.3. Professor-o‘qituvchilar faoliyati

Professor-o‘qituvchilarning pedagogik va ilmiy faoliyati samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi:

– o‘qitish sifati va dars jarayonini tashkil etish darajasi;

– talabalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar (feedback) natijalari;

– ilmiy faoliyat ko‘rsatkichlari (ilmiy maqolalar, ilmiy loyihalar, konferensiyalarda ishtirok etish);

– o‘quv-uslubiy ishlanmalar va metodik materiallar tayyorlash darajasi.

3.2.4. Talabalar qoniqish darajasi

Talabalar qoniqish darajasi quyidagi mexanizmlar orqali aniqlanadi:

– anonim so‘rovnomalar natijalari;

– ta‘lim jarayoni sifati bo‘yicha talabalar fikr-mulohazalari;

– ta‘lim muhitiga, o‘quv jarayonining tashkil etilishiga hamda akademik xizmatlarga nisbatan talabalar baholari.

3.2.5. Ish beruvchilar va manfaatdor tomonlar fikri

Ta‘lim dasturlarining mehnat bozori talablariga mosligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

– ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalariga berilgan baho;

– bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi;

– ta‘lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi;

– ish beruvchilar va soha mutaxassislari tomonidan berilgan tavsiyalar.

3.3. Barcha indikatorlar APS (https://aps.orientaluniversity.uz) platformasi orqali real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Mazkur ko‘rsatkichlar asosida olingan ma‘lumotlar har semestr yakunida muntazam ravishda tahlil qilinadi hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

IV. O‘QUV JARAYONI SIFATINI BAHOLASH USULLARI

4.1. Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifatini baholash ta‘lim jarayonining samaradorligini aniqlash, uning natijalarini monitoring qilish hamda ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida turli usullar orqali amalga oshiriladi.

4.2. O‘quv jarayoni sifatini baholash quyidagi asosiy usullar asosida olib boriladi:

- akademik natijalar monitoringi (HEMIS) – talabalar o‘zlashtirish darajasi, oraliq va yakuniy nazorat natijalari, GPA ko‘rsatkichlari hamda akademik qarzdorlik darajasini tahlil qilish orqali;

– talabalar so‘rovnomalari – talabalar o‘rtasida anonim so‘rovnomalar o‘tkazish orqali ta‘lim jarayonining sifati, o‘qitish uslublari hamda o‘quv muhitiga nisbatan fikr-mulohazalarni aniqlash orqali;

– professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash – pedagogik faoliyat samaradorligi, o‘qitish sifati, ilmiy faoliyat natijalari hamda metodik ishlanmalar asosida;

– o‘quv mashg‘ulotlarini kuzatish – dars jarayonlarini monitoring qilish, pedagogik yondashuvlar va o‘qitish metodlarining samaradorligini tahlil qilish orqali;

– o‘quv-uslubiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish – o‘quv rejalari, fan sillabuslari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar hamda boshqa o‘quv-uslubiy materiallarning sifatini baholash orqali;

– ichki audit va monitoring jarayonlari – ta‘lim jarayonining tashkil etilishi, o‘quv-uslubiy ta‘minot darajasi hamda ta‘lim dasturlarining amaldagi talablarga muvofiqligini Asosiy samaradorlik ko’rsatkichlari (KPI) tizimi orqali amalga oshiriladi.

4.3. O‘quv jarayoni sifatini baholash har semestr yakunida Ta‘lim sifatini ta’minlash bo‘limi, kafedralar hamda boshqa mas‘ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

4.4. Baholash jarayonida to‘plangan ma‘lumotlar muntazam ravishda umumlashtiriladi, tahlil qilinadi hamda ularning natijalari asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

V. O‘QUV JARAYONINI TAHLIL QILISH TARTIBI

5.1. Oriental universitetida o‘quv jarayoni sifati bo‘yicha to‘plangan ma‘lumotlar har semestr yakunida umumlashtiriladi va tizimli tahlil qilinadi. Mazkur tahlil ta‘lim jarayonining samaradorligini aniqlash hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha zarur choralarni ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi.

5.2. O‘quv jarayonini tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladi:

– talabalar o‘zlashtirish darajasi va akademik natijalari;

– o‘quv rejalari va ta‘lim dasturlarining samaradorligi hamda dolzarbligi;

– professor-o‘qituvchilar pedagogik faoliyatining natijalari;

– o‘quv-uslubiy ta‘minot darajasi;

– talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar;

– ta‘lim jarayonida aniqlangan muammolar va kamchiliklar.

5.3. O‘quv jarayoni sifati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalari tegishli tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda muhokama qilinadi.

5.4. Tahlil natijalari quyidagi yig‘ilishlarda muhokama qilinadi:

– kafedra yig‘ilishlarida;

– tarkibiy bo’linma kengashlarida;

– universitet Akademik kengashida.

5.5. Mazkur yig‘ilishlarda o‘quv jarayonini takomillashtirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5.6. Tahlil natijalari asosida qabul qilingan qarorlar tegishli bayonnomalar, qarorlar yoki universitet rahbariyatining buyruqlari bilan rasmiylashtiriladi hamda ularning ijrosi belgilangan tartibda nazorat qilinadi.

VI. O‘QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

6.1. O‘quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish natijalari asosida ta‘lim jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

6.2. O‘quv jarayonini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

– o‘quv rejalari va ta‘lim dasturlarini zamonaviy talablar hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ravishda yangilash va takomillashtirish;

– fan sillabuslarini qayta ko‘rib chiqish va ularning mazmunini yangilash;

– professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglarni tashkil etish;

– o‘quv-uslubiy materiallar, darsliklar hamda elektron ta‘lim resurslarini yangilash va boyitish;

– ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion o‘qitish usullari hamda raqamli ta‘lim vositalarini joriy etish;

– talabalar bilan akademik maslahat (tutorlik) va qo‘shimcha mashg‘ulotlar tizimini rivojlantirish.

6.3. O‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar universitetning tegishli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda universitet rahbariyatiga taqdim etiladi.

6.4. Takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi va ularning ijrosi tegishli tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga yuklatiladi.

6.5. Chora-tadbirlar ijrosi nazorati quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kafedra mudiri har oy choralar rejasi bo‘yicha ijro holatini tekshiradi;

b) Ta‘lim sifatini ta’minlash bo‘limi har semestr yakunida monitoring hisoboti shakllantirishni ta‘minlaydi;

c) bajarilmagan yoki muddati o‘tgan chora-tadbirlar bo‘yicha tahlili o‘tkaziladi va muammolar reyestriga kiritiladi;

d) ijro holati menejerlar kengashida va Akademik kengashda har semestr muhokama qilinadi.

VII. NATIJALARNI RASMIYLASHTIRISH

7.1. O‘quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi hamda tegishli tarkibiy bo‘linmalar tomonidan hujjatlashtiriladi.

7.2. O‘quv jarayoni sifati bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring, baholash va tahlil natijalari quyidagi hujjatlarda aks ettiriladi:

- ta‘lim jarayonini monitoring qilish bo‘yicha hisobotlar;
- ichki audit natijalari bo‘yicha hisobotlar;
- kafedra yig‘ilishlari bayonnomalari;
- menejerlar kengashlari yig‘ilishlari bayonnomalari;
- universitet Akademik kengashi qarorlari;
- universitet rektorining buyruqlari va farmoyishlari.

7.3. Mazkur hujjatlarda o‘quv jarayonining holati, aniqlangan muammolar, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar hamda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar aks ettiriladi.

7.4. O‘quv jarayoni sifati bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar universitetning tegishli tarkibiy bo‘linmalarida saqlanadi hamda zarur hollarda ta‘lim jarayonini takomillashtirish va boshqarish jarayonlarida foydalaniladi.

7.5. Mazkur hujjatlar asosida qabul qilingan qarorlarning ijrosi belgilangan tartibda nazorat qilinadi.

7.6. O‘quv jarayoni sifatini baholash va takomillashtirish natijalari quyidagi yo‘llar orqali manfaatdor tomonlarga yetkaziladi:

- professor-o‘qituvchilarga: kafedra va menejerlar yig‘ilishlari, metodik seminarlar orqali;
- talabalarga: universitetning rasmiy axborot resurslari, talabalar vakillik organlari yig‘ilishlari orqali;
- ish beruvchilar va tashqi manfaatdor tomonlarga: yillik hisobotlar, hamkorlik uchrashuvlari orqali.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur Tartib Oriental universiteti rektori tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiradi va universitetning barcha tarkibiy bo‘linmalari uchun majburiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati yuzaga kelganda, ular universitetning tegishli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqiladi hamda universitet Akademik kengashi qarori asosida tasdiqlanadi.

8.3. Mazkur Tartib talablariga rioya etilishi universitetning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, jumladan ta‘lim sifatini ta’minlash bo‘linmalar tomonidan nazorat qilinadi.

8.4. Mazkur Tartib qoidalarining bajarilishi ustidan umumiy nazorat Universitet rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor: _____ **X. Aminov**

O‘quv-uslubiy boshqarmasi boshlig‘i: _____ **A. Mardanov**

Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i: _____ **A. Ungalov**